



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 30.04.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

QORADARYO XAVZASIDA TARQALGAN GIDROBIONT HAYVONLARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARIGA OID

Xusanov Alijon Karimovich., Anvarjonov Shoxruxbek Arslonbek o'g'li., Yaxyoyev Abdumuxtor Abduraxim o'g'li
Andijon davlat universiteti
Uzbekistan
anvarjonov3205@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoradaryo havzasidagi ayrim gidrobiontlarning bioekologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda asosiy fokus baliqlar va umurtqasizlarning ekologik holati, antropogen ta'sirga sezgirligi va bioindikator sifatidagi ahamiyatiga qaratildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra Qoradaryoning turli oqimlarida uchrovchi karpsimonlar (Cyprinidae) va dog'li yalangbaliq (Triplophysa strauchi) turlarining morfologik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Qoradaryo havzasi, gidrobiontlar, bioekologiya, bioindikator, antropogen ta'sir, ekologik monitoring.

Аннотация: В статье анализируются биоэкологические особенности некоторых гидробионтов бассейна реки Карадарья. Основное внимание в исследовании уделялось экологическому статусу рыб и беспозвоночных, их чувствительности к антропогенному воздействию и их значению как биоиндикаторов. Целью исследований является выявление

морфологических особенностей карповых (Cyprinidae) и пятнистой камбалы (*Triplophysa strauchi*) в разных водотоках реки Карадарья.

Ключевые слова: бассейн Карадарьи, гидробионты, биоэкология, биоиндикатор, антропогенное воздействие, экологический мониторинг.

Abstract: This article analyzes the bioecological characteristics of some hydrobionts in the Karadarya basin. The main focus of the study was on the ecological status of fish and invertebrates, their sensitivity to anthropogenic impact, and their importance as bioindicators. According to the results of the study, it is aimed to reveal the morphological characteristics of the species of carp (Cyprinidae) and spotted sole (*Triplophysa strauchi*) in different streams of the Karadarya.

Keywords: Karadarya basin, hydrobionts, bioecology, bioindicator, anthropogenic impact, ecological monitoring.

Language: Uzbek

Citation: Khusanov , A., Anvarjonov , S., & Yakhyoyev , A. (2025). ON THE BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF HYDROBIOTICS DISTRIBUTED IN THE KARADARYA BASIN. *Universal International Scientific Journal*, 2(4), 194–198. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1582>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15315641>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Qoradaryo havzasi Farg‘ona vodiysida joylashgan bo‘lib, O‘zbekistonning eng muhim suv ekotizimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu havzaning gidrobiologik xilma-xilligi mintaqaviy ekologik barqarorlik, suv sifati va qishloq xo‘jaligi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi (Shermatov, 2019). Gidrobiont organizmlarga baliqlar, qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar, suv hasharotlari va suv o‘tlari kirib, bular suv ekotizimlarining asosiy komponentlari hisoblanadi. Ularning bioekologik

xususiyatlari muhit holatini baholashda samarali bioindikator sifatida xizmat qiladi (Wetzel, 2001; Rosenberg & Resh, 1993).

So‘nggi yillarda O‘zbekistonlik qator tadqiqotchilar tomonidan Qoradaryo havzasida ayrim gidrobiont guruhlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, A. Ismoilov (2015) Cyprinidae oilasiga mansub baliq turlarining tarqalishi, oziqlanishi va suv harorati bilan bog‘liqligini o‘rgangan.

Mirzayev (2020) Surxondaryo viloyatidagi suv resurslarining gidrologik va kimyoviy tarkibini tahlil qilgan hamda

ushbu omillarning gidrobiontlarga ta'sirini ko'rsatgan.

To'xtayev (2018) hamda Tursunov (2021)lar esa qishloq xo'jaligidan ajralib chiqadigan pestitsidlar va organik moddalarning gidrobiontlar populyatsiyasiga salbiy ta'sirini qayd etgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati baliqlar faunasiga yo'naltirilgan bo'lib, umurtqasiz gidrobiontlar – jumladan, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalarning bioekologik holati yetarlicha o'rganilmagan (Shermatov, 2019). Abdullayev (2017) baliqlarning ko'payishi va oziqlanish adaptatsiyalarini tahlil qilgan bo'lsa-da, boshqa gidrobiont guruhlari e'tibordan chetda qolgan.

Xalqaro adabiyotlarda esa gidrobiontlarning ekologik roli toliq yoritilgan. Wetzel (2001) gidrobiontlarning oziq zanjiridagi o'rnini tahlil qilgan, Allan (2004) esa daryo organizmlarining tarqalishini suv oqimi va substrat xususiyatlari bilan bog'lagan.

Dodson, Allen va Kats (2009) suv harorati va kislorod miqdoriga organizmlarning moslashuvini tahlil qilgan.

Rosenberg va Resh (1993) hamda Cairns va Pratt (1993) esa umurtqasiz gidrobiontlarning suvning ifloslanishga sezgirligini asoslab, ularni ekologik monitoring uchun muhim bioindikator sifatida taklif etgan.

Nisbatan olib qaraganda Qoradaryo havzasidagi tadqiqotlar ayrim muhim

tadqiqotlar o'tkazilishi muhimligini ko'rsatmoqda. Xususan, havzaning turli hududlari – daryo, suv omborlari va sug'orish kanallarida gidrobiontlarning tarqalishi, ekologik moslashuvi va antropogen stressga sezgirligi haqida kompleks tahlillar yetarli emas (To'xtayev, 2018). Shu sababli, Qoradaryo havzasida, ayniqsa umurtqasiz hayvonlarning bioekologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni hamda samarali ekotizim monitoringi uchun aniq ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotlar asosan Qoradaryoning turli xavzalarida olib borildi. Qoradaryoning yuqori, o'rta va quyi oqimlari asosiy tadqiqot hududlari sifatida tanlanib, namunalar yig'ildi.

Baliqlarni o'lchash umumiy baliqshunoslik usullari bo'yicha amalga oshirildi (Pravdin I.F., 1966). Baliq turlarini aniqlashda I.M.Mirabdullayev, A.R.Kuzmetov, A.R.Qurbonovlar tomonidan tuzilgan "O'zbekiston baliqlari xilma-xilligi" (Mipabdullaev I.M., 2020) hamda M.A.Yuldashov, T.V.Salixov, B.G.Kamilovlarning "O'zbekiston baliqlari" (Yuldashov M.A, 2018) qo'llanmalaridan foydalanildi.

Tadqiqotimizda Qoradaryo va Balxash-Alakol (R.T. Barakov, 2024) suv havzalaridagi zog'orabaliq (*Cyprinus carpio*) hamda Qoradaryo va Norin daryolaridagi dog'li yalangbaliq (*Triplophysa trauchi*) populyatsiyalarining morfometrik

farqlarini va muhit sharoitlarining ta'siri qiyosiy o'rganildi.

Qoradaryo havzasidagi zog'orabaliqlar Balxash-Alakol (R.T. Barakov, 2024) nikiga nisbatan kichikroq bo'lib, umumiy uzunlik va standart uzunlikda sezilarli farqlar mavjud. Tana balandligi bo'yicha tafovut unchalik katta emas. Balxash-Alakolda qo'shimcha parametrlar, jumladan, tumshuq uzunligi (1.8–2.8 sm), peshona kengligi (2.7–3.1 sm) va umurtqalar soni (ko'krak: 18.1–22.0; quyruq: 16.3–19.4) o'lchandi, Qoradaryoda esa faqat ikkita namuna tahlil qilinganligi sababli bunday ma'lumotlar yo'q. Balxash-Alakolda 70 ta namuna (Balxash: 20, Alakol: 25, Kapchagay: 25) asosida ishonchli natijalar olindi. Balxash-Alakol baliqlarining yirikligi oziqa mo'lligi, suvning barqaror oqimi yoki sun'iy ko'paytirish dasturlari bilan, Qoradaryodagi kichikroq o'lchamlar esa tez oqim yoki oziqa tanqisligi bilan izohlanishi mumkin. Bu taxminlar qo'shimcha tadqiqot talab qiladi.

Qoradaryo namunalarida standart uzunlik Norin (Nazarov M, 2022) daryosidagiga nisbatan yuqori (14.5–19.5 sm qarshi 12.8 sm), lekin bosh uzunligi kichikroq (1.2–1.92 sm qarshi 2.4 sm). Predorsal uzunlik Qoradaryoda 3.7–4.2 sm,

Norinda 5.5 sm, postdorsal uzunlik esa har ikki mintaqada yaqin (4.0–4.4 sm qarshi 4.1 sm). Qoradaryoda baliqlarning umumiy tana uzunligi kattaroq, bosh uzunligi kichikroq bo'lib, bu ekologik sharoitlarga moslashuv natijasi sifatida baholanadi. Natijalar ikkala baliq turining turli mintaqalardagi populyatsiyalari tarkibidagi individlarning morfologiyasi o'rtasida geografik farqlanishlar borligini ko'rsatadi. Bu farqlar geografik to'siqlar, muhit omillari yoki antropogen transformatsiya hisobiga kelib chiqishi mumkin.

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, zog'orabaliq va dog'li yalangbaliqlarning turli mintaqalardagi populyatsiyalari o'rtasida sezilarli morfometrik farqlar aniqlandi. Zog'orabaliq Balxash-Alakolda nisbatan yirikroq o'lchamlarga ega bo'lsa, Qoradaryoda gavda tuzilishi kichik o'lchamga egaligi kuzatildi. Dog'li yalangbaliq Qoradaryoda uzun tanaga egaligi kuzatilgan bo'lsa, Norin daryosidagi populyatsiya vakillari nisbatan unga ko'ra kaltaroq ko'rinishga egaligi aniqlandi. Bu farqlar oziqa mavjudligi, suv oqimining barqarorligi, daryo sharoitlari yoki inson faoliyati, masalan, sun'iy ko'paytirish dasturlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, A. (2017). Qoradaryo suv omborlarida baliqlarning ko'payish sikli va oziqlanish odatlari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Allan, J. D. (2004). Landscape and riverscapes: The influence of land use on stream ecosystems. *Annual Review of Ecology, Evolution, and Systematics*, 35(1), 257–284. <https://doi.org/10.1146/annurev.ecolsys.35.120202.110122>
3. Cairns, J., & Pratt, J. R. (1993). A history of biological monitoring using benthic macroinvertebrates.

- In D. M. Rosenberg & V. H. Resh (Eds.), *Freshwater biomonitoring and benthic macroinvertebrates* (pp. 10–27). Chapman & Hall.
4. Dodson, S. I., Allen, T. F. H., & Kats, L. B. (2009). *Ecology*. Oxford University Press.
 5. Ismoilov, A. (2015). *O‘zbekiston suv havzalaridagi baliq faunasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
 6. Mirzayev, Sh. (2020). *Surxondaryo viloyati suv resurslarining ekologik holati*. *Ilmiy maqolalar to‘plami*, 15(3), 45–52.
 7. Rosenberg, D. M., & Resh, V. H. (1993). *Freshwater biomonitoring and benthic macroinvertebrates*. Chapman & Hall.
 8. Shermatov, N. (2019). *O‘zbekiston suv havzalarining biologik xilma-xilligi*. Toshkent: Akademi nashr.
 9. To‘xtayev, B. (2018). *Qishloq xo‘jaligi faoliyatining suv havzalariga antropogen ta‘siri*. Samarqand: Ekosfera.
 10. Tursunov, M. (2021). *Gidrobiontlarning biologik xilma-xilligidagi antropogen o‘zgarishlar*. Qarshi: Ekologiya nashriyoti.
 11. Wetzel, R. G. (2001). *Limnology: Lake and river ecosystems* (3rd ed.). Academic Press.
 12. Правдин И.Ф. *Руководство по изучению рыб*. Москва: Изд-во «Пищевая промышленность», 1966 Mirabdullaev I.M., Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. *O‘zbekiston baliqlari xilma-xilligi*. Toshkent: “Classic” nashriyoti, 2020
 13. Yuldashov M.A., Salixov T.V., Kamilov B.G. *O‘zbekiston baliqlari*. Toshkent: “GOLD-PRINT NASHR” nashriyoti, 2018